

Qadr-qimmatim, tayanchim va iftixorimsan, mustaqil O'zbekiston!

www.tongyulduzi.uz

*Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!*

TONG YULDUZI

2013-yil 26-avgust

N:34 (66939)

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN – 2010-6092



ENG ULUG' AYYOMING MUBORAK. YURTIM!

Sh. MAXMADIVEV olgan suratlar



RAQSLAR BAYRAMI

Kuni kecha poytaxtimizdagi «City Makon» madaniy-ma'rifiy ko'ngilochar markazida «Fond Forum», Madaniyat va sport ishlari, Xalq ta'limi vazirliklari, respublika Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi hamda boshqa mutasaddi tashkilotlar hamkorligida V zamonaviy xoreografiya va sport plastikasi xalqaro tanlovi bo'lib o'tdi.

Yurtimiz va xorijdagi 42 ta raqs jamoalari ishtirok etgan mazkur tanlovda yosh iste'dod egalari sport-bal, milliy va zamonaviy raqs, «street-dance» – ko'cha raqslari, «freestyle» – erkin uslub, sport akrobatikasi, badiiy gimnastika kabi yo'nalishlar bo'yicha o'z iqtidorlarini sinovdan o'tkazishdi. Turli ko'rgazmalar, roller, skayter, velosiped va parkurchi-atletlar o'rtasida o'tgan musobaqalarni, ishtirokchilarning milliy raqs, xip-xop, breyk-dancing, popping va dansxoll yo'nalishidagi raqslarini tomoshabinlar katta qiziqish bilan tomosha qilishdi. Yurtimizdagi mohir xoreograflar hamda xorijlik mutaxassislar tomonidan tanlov g'oliblari va sovrindorlari aniqlandi. Ularga maxsus diplom, sertifikat hamda esdalik sovg'alari topshirildi.

Poytaxtimizdagi 281-maktabning 2-sinf o'quvchisi Begzodbek Narimonov Istiqlol bergan imkoniyatlar-dan ilhom olib, o'z iqtidori-yu salohiyatini namoyon etayotgan o'g'il-qizlardan biri.

U bilan qilgan
suhbatimizni
8-betda o'qiysiz.

Jonajon diyorimiz bo'yab kezib yurgan eng ulug', eng aziz bayramimiz shukuhi yurtdoshlarimiz qalbini faxr va iftixor tuyg'ulariga to'ldirayotgan ayni kunlarda, qo'shaloq bayram taraddudidagi o'quvchilarimizning quvonch va hayajonlari ham

cheksiz. Quvonmay bo'ladimi, axir ularni zamon talablari darajasida yangidan qad rostlagan yoki kapital ta'mirdan chiqarilgan ko'rkam, muhtasham ta'lim muassasalari, mehri daryo ustozlari intiqlik bilan kutishmoqda.

QO'SHALOQ BAYRAM SHUKUHI

Shunday farahbaxsh kunlarda davlatimiz tomonidan yosh avlodning ta'lim-tarbiyasi uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar, keng imkoniyatlar, amalga oshirilayotgan ezgu ishlar xususida biroz to'xtalib o'tsak, ayni muddao bo'ladi.

Ana shundau ezgu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi Axborot xizmati rahbari Bahridin SHAYVALIYEVni suhbatga chorladik.

— 2004–2009-yillarda Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi doirasida ta'lim-tarbiya muassasalarining moddiy-texnik bazasini yanada mustahkamlash borasida amalga oshirilgan ishlar xususida to'xtalsangiz.

— O'tgan davr mobaynida respublikamizdagi jami 9765 ta maktabning 7515 tasida qurilish-ta'mirlash ishlari amalga oshirildi. Shundan 424 ta yangi maktab qurilgan bo'lsa, 3006 ta maktab

faoliyatini yanada yaxshilash bo'yicha 2009–2014-yillarga mo'ljallangan Davlat dasturi doirasida 278 ta bolalar musiqa va san'at maktablarida qurilish-tiklash ishlari bajarish rejalashtirilgan, shundan 84 tasi 1-Tip, 194 tasi 2-Tip loyihasi asosida amalga oshirilishi belgilangan.

Jumladan, 2009–2012-yillarda Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi tomonidan 175 ta Bolalar musiqa va san'at maktablari foydalanishga topshirildi. Joriy yilda esa 55 ta maktabda qurilish-tiklash ishlari amalga oshirilmoqda.

Yurtimizda musiqa va san'at ta'limiga berilayotgan yuksak e'tibor va zamonaviy shart-sharoitlarning bosqichma-bosqich yaratilishi natijasida, o'quvchilarning

muvaffaqiyatli ishtirok etib, sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritishdi.

— Mustaqillik yillarida Prezidentimiz rahnamoligida jismoniy tarbiya va sportni, xususan, bolalar sportini rivojlantirishga alohida ahamiyat berilmoqda...

— Darhaqiqat, Yurtboshimiz sportning inson hayotidagi roli, uning jismoniy va



rekonstruksiya qilindi, 4085 ta maktab esa kapital ta'mirlandi.

2004-yilda respublika bo'yicha boro'g'i 1213 ta umumta'lim maktablari zamonaviy kompyuter texnikasi bilan ta'minlangan bo'lsa, bugungi kunga kelib bunday imkoniyatga ega maktablar soni 7 mingdan ortiqdir.

2013–2014-o'quv yilida 9765 ta umumta'lim maktablarida to'rt yarim millionga yaqin o'quvchi tahsil olsa, ularning besh yuz mingdan ziyodi ilk marotaba maktab ostonasiga qadam qo'yadi. 1-sinf o'quvchilariga 12 nomdagi o'quv qurollaridan iborat Prezident sovg'alari hamda barcha darsliklar beriladi.

— Yosh avlod kamolotida musiqa va san'atning o'rni beqiyos. Bolalar musiqa va san'at maktablari faoliyati haqida ham gapirib bersangiz.

— Bugungi kunda Xalq ta'limi tizimida 301 ta Bolalar musiqa va san'at maktablari faoliyat ko'rsatmoqda. Prezidentimizning 2008-yil 8-iyuldagi PQ-910-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Bolalar musiqa va san'at maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va ularning

ko'rik-tanlovi, «Yangi avlod» bolalar ijodiyot festivali kabi tadbirlardagi ishtiroki, shuningdek, xalqaro tanlov va festivallarda qo'lga kiritayotgan yutuqlari soni ham yildan yilga ortib bormoqda.

Iste'dodli yoshlarni har tomonlama rag'batlantirish, ularning iqtidorini rivojlantirish, yoshlarimizning milliy va jahon musiqalari namunalaridan keng bahramand bo'lishi uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar bugungi kunda o'z samarasini bermoqda. 2008-yilda 31 nafar, 2009-yilda 40 nafar, 2010-yilda 46 nafar, 2011-yilda 41 nafar iste'dodli yoshlarimiz Fransiya, Italiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Ruminiya, Rossiya kabi davlatlarda o'tkazilgan nufuzli xalqaro tanlovlarda g'oliblikni qo'lga kiritdilar.

2012-yilda musiqa va san'at ta'limi muassasalarining yuzga yaqin o'quvchilari Rossiya, Italiya, Fransiya, AQSH, Ozarbayjon, Qozog'iston, Turkmaniston kabi davlatlarda bo'lib o'tgan tanlovlarda ishtirok etib, 85 nafar iste'dodli yoshlarimiz sovrindorlar ro'yxatidan o'rin olishdi. Ulardan 5 nafari Gran-Pri bilan taqdirlandi. Joriy yilda ham 40 nafardan ziyod yoshlarimiz xalqaro tanlovlarda

ma'naviy sog'lomlikning asosi ekanligini doimo ta'kidlab kelganlar. Bu borada Prezidentimizning 2002-yil 24-oktabrdagi «O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasini tuzish to'g'risida»gi Farmoni bolalar sportini yanada rivojlantirishda asosiy dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda.


Agar o'tgan davr mobaynidagi raqamlarga murojaat etadigan bo'lsak, 1991-yilda respublikada xalq ta'limi tizimidagi barcha sport inshootlari, maktab sport zallari va suzish havzalari soni 5490 tani tashkil qilgan bo'lsa, bugunga kelib ularning soni 6950 taga yetdi. 1991-yilda sport bilan shug'ullanuvchi bolalar soni atigi 200 ming nafarni tashkil etgan bo'lsa, bugungi kunda bu ko'rsatkich 1 million 800 mingdan ortiqdir.

Yuqorida qayd etilgan raqamlar shuni ko'rsatadiki, mustaqillik yillarida sport bilan shug'ullanayotgan bolalarimiz soni 9 barobarga ortdi.

Bolalar sportini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar, sportsevar o'g'il-qizlarimizning qo'lga kiritayotgan yutuqlari haqida gapirar ekanmiz, sportchi yoshlarimiz tomonidan Istiqlol yillarida jami 4025 ta shundan 1279 ta oltin, 1164 ta kumush va 1589 ta bronza medallarini qo'lga kiritganini alohida qayd etish kerak. Fursatdan foydalanib, barcha yurtdoshlarimizni eng ulug', eng aziz shodiyona — Mustaqillik bayrami bilan muborakbod etaman.

— Mazmunli suhbatimiz uchun tashakkur. Bayram barchamizga muborak bo'lsin!

Feruza JALILOVA suhbatlashdi



2003-yil

Yurtimiz umumta'lim maktablari o'quvchilarining «Umid nihollari» sport o'yinlari boshlandi. Ko'hna Xorazm viloyatida o'tgan mazkur musobaqada 2600 dan ziyod maktab o'quvchilari sportning 12 turi bo'yicha bellashdilar. Andijonda bo'lib o'tgan «Barkamol avlod» musobaqasida esa kollej va akademik litseylarning 2800 nafar o'quvchilari ishtirok etishdi.

2004-yil

Prezidentimizning «2004–2009-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi to'g'risida»gi Farmoni e'lon qilindi. U yurtimizda ta'lim tizimini isloh qilishda muhim dasturilamal bo'ldi.

2005-yil

Yurtboshimiz taklifiga binoan mazkur yil «Sihat-salomatlik yili» deb nomlandi. Shu yili aholi salomatligini mustahkamlash, jismonan sog'lom va ma'nan yetuk avlodni tarbiyalash kabi ezgu ishlarga yo'naltirilgan samarali chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Yurtboshimiz tashabbusi bilan Mustaqillik maydonida Ezgulik arkasi bunyod etildi, Baxtiyor ona haykali qad rostladi.

2006-yil

3-may — Jahon matbuot erkinligi kuni arafasida Prezidentimiz tashabbusi bilan «Oltin qalam» Milliy mukofoti uchun xalqaro tanlov ta'sis etildi. «Oltin qalam» I Milliy mukofoti uchun e'lon qilingan ilk tanlovda 136 nafar jurnalist ishtirok etdi.

TARIX ERTAK EMAS

Har yili 31-avgust kuni erta tongdanoq poytaxtimizdagi «Shahidlar xotirasi» maydoniga hamyurtlarimiz ajdodlarimiz ruhini yod etish uchun oshiqishadi, xalqni ma'rifatli qilish uchun kurashgan vatandoshlarimizning ayanchli taqdirini xotirlashadi.

Mazkur sana arafasida bu sokin go'shada bo'lib, «Qatag'on qurbonlari xotirasi» muzeyi va «Shahidlar xotirasi» jamoat fondining bugungi kundagi faoliyati xususida muzey direktori, jamoat fondi raisi, tarix fanlari doktori Baxtiyor aka HASANOV bilan suhbatlashdik:

– Baxtiyor aka, suhbatimiz avvalida «Shahidlar xotirasi» maydonining bunyod etilishi haqida o'quvchilarga ma'lumot berib o'tsangiz.

– «Shahidlar xotirasi» maydoni 2000-yilda Prezidentimiz tashabbusi bilan yurtimiz ozodligi va mustaqilligi uchun bo'lgan kurashlarda matonat ko'rsatib, xalqimizni hurlik va ozodlikka undagan, mustabid tuzum davrida

qatag'onga uchragan minglab vatandoshlarimiz xotiralarini tiklash va abadiylashtirish maqsadida barpo etilgan. Maydondagi moviy gumbaz ostidagi sag'ana toshi o'sha davrlarda nohaq ayblanib qatl qilingan, o'z yurtidan quvilib, o'zga yurtlarda vafot etgan yurtdoshlarimizning ramziy qabri sifatida o'rnatilgan. Bugun ko'plab yurtdoshlarimiz qatag'onga uchragan ota-bobolarini, yaqinlarini xotirlab, maydonga, muzeyga ziyoratga kelishadi. Avvallari «Alvastiko'prik» deb nom chiqargan bu joy davlatimiz e'tibori tufayli obodonlashtirilib, xalqimizning eng sevimli ziyoratgohlaridan biriga aylantirildi. «Qatag'on qurbonlari xotirasi» muzeyi zamonaviy usulda barpo etilib, ziyoratchilar uchun multimedia – axborot bazasi va telekranlar qo'yilgan. Har bir yurtdoshimiz qalbida vatanparvarlik hissini uyg'otish, ayniqsa, yoshlarimizni bugungi farahbaxsh kunlarning qadriga yetishga, qatag'on qurbonlari xotirasiga yuksak hurmat va ehtirom bilan munosabatda bo'lishga undash – ekspozitsiyaning g'oyaviy asosini tashkil etadi.

– «Shahidlar xotirasi» jamoat fondining bugungi faoliyati haqida to'xtalsangiz.

– Mazkur fond mustamlakachilik davri qurbonlari xotirasini tiklash va abadiylashtirish, kechalar va



tadbirlar o'tkazish maqsadida tashkil etilgan. Jamoat fondi tomonidan to'plangan fotosuratlar, hujjatlar, buyumlar va boshqa materiallar muzey arxiviga kiritiladi. Fond tashkil topqandan buyon xodimlarimiz mustamlakachilik davrida, xususan, o'tgan asrning 30–50-yillarida bo'lib o'tgan siyosiy voqealarni, qatag'on qurbonlarining hayoti va faoliyatini o'rganish, ular haqida gazeta

va jurnallarda maqolalar berish, kitob va risolalar chop etish, adabiyot, san'at asarlarini yaratish ishlari bilan shug'ullanib kelmoqdalar. Zero, o'tmishdan saboq chiqarish hur va osoyishta zamonamizning qadriga yetishga undaydi.

– Yosh avlodga tilaklaringiz.

– Bugungi yoshlarimizga muzeyimizdagi ma'lumotlar go'yo ertakdek tuyuladi. Lekin tarix ertak emas. Qatag'on yillarida nafaqat odamlar, balki yuzlab masjidlar, madrasalar yo'q qilindi, ular bilan birga ko'plab me'moriy va tarixiy obidalarimiz ham tuproqqa qorishdi. Bular xalqimizning o'tmishi, Istiqloлга qadar boshdan kechirgan eng iztirobli kunlaridir.

Bugun qutlug' sanani nishonlanayotgan shodon kunlarimizda o'tmishga bir qur nazar tashlab, mash'um qatag'on davri haqida mulohaza qilsak, Istiqlolimiz naqadar bebaho ne'mat ekanligini yanada teranroq his qilamiz. Bugungi kun yoshlariga hurligimiz, ozodligimizning qadriga yetib yashang, deyman.

– Mazmunli suhbatigiz uchun tashakkur. Sizga ham Mustaqilligimizning 22 yillik shodiyonasi muborak bo'lsin!

LAYLO suhbatlashdi

Bayram tabrigi

9-sinfni tamomlash arafasida ona tili darsida «Men O'zbekiston taraqqiyotiga qanday hissa qo'shmoqchiman?» mavzusida insho yozgandik. O'shanda men o'z inshoimda: «Kelajakda o'qituvchilik kasbini egallab, ustozim kabi yuzlab shogirdlarga ta'lim-tarbiya bersam, ular turli sohalarda el-yurt uchun xizmat qilishsa, Vatan oldidagi burchimning bir qismini ado eta olarmikanman?»



VATAN TUYG'USINI QANDAY ANGLADIM?

Buvijonim ayganlaridek, bir oilaning oqila bekasi bo'lib, komil farzandlarni voyaga yetkazsam, turmushim-u xonadonimni obod aylasam, jamiyat mustahkamligiga hissa qo'sha olarmen. Axir muhimi istak, intilish va harakat deyishadi-ku?» deya oddiygina fikrlarimni qog'ozga tushirgandim.

Shu darsdan so'ng men kelajakka jiddiyroq qarab, yozganlarimni amalga oshirishga intilib yashadim. Bilimli, intiluvchan yoshlarga Vatan taraqqiyotiga hissa qo'sha olishini anglab, yanada ko'proq o'qib-o'rgandim.

Oliy o'quv yurtida tahsil olib, o'zim orzu qilgan kasbim egasi bo'ldim. Bugun ish joyimda fidokorona mehnat qilib, oilamga mehr-e'tiborli bo'lib, yurt ravnaqiga o'z hissamni qo'shayotganimdan baxtiyorman. Kelajakda ta'lim sohasining rivoji yo'lida ilmiy izlanishlar olib borish, yangi o'quv uslublarini ishlab chiqish niyatidaman. Ustozlarimiz bizga anglatgan Vatan tuyg'usini o'quvchilarimiz ong-u shuuriga ham singdirsam, deyman.

Barcha yurtdoshlarimizni bayram bilan muborakbod etaman!

Ziyoda TOSHEVA,
Toshkent shahar, Shayxontohur tumanidagi
49-maktabning ma'naviy-ma'rifiy ishlar
bo'yicha direktor o'rinbosari

QANDAY YAXSHI!

Yangi o'quv yiliga ham sanoqli kunlar qoldi. O'quv qurollarimni ko'zdan kechirib, maktab formam bitib qoldimikan, deya o'qlab qoldim.

Nega deysizmi? Chunki bu yil maktabimizda yangi forma joriy etildi. O'quvchilarning yoshiga mosligi, dizayni jihatidan ham boshqa maktablarnikidan farq qiladigan yangi formamiz barchaga birdek ma'qul bo'ldi. Maktab formasini malakali tikuvchi Klara opa 10 nafar shogirdlari bilan birgalikda tikib berishni o'z zimmalariga oldilar. Formamiz bejirim va chiroyli chiqishi uchun har birmizning alohida o'lchamimiz olindi. Yangi o'quv yilida yangi maktabga yangi maktab formasida borish qanday yaxshi!

Odina TURSUNBOYEVA,
poytaxtdagi 96-maktabning
7-«A» sinf o'quvchisi



Bizga maktub yo'llabsiz...

Hademay barchamiz intizorlik bilan kutayotgan bayram, ya'ni, Istiqlolning 22 yilligini keng tantana qilamiz.

QARZDORLIK HISSI

Xalqimizda «To'yga to'yona bilan» degan naql bor. Yozgi ta'tilda men yigirma ikkita badiiy kitob o'qishga ahd qilgandim. Ahdimni bajardim. Bu mening Mustaqillik bayramiga atagan sovg'am bo'ladi.

Zero, Mustaqillik shunday ulug' ne'matki, uni hech qanday boylikka tenglashtirib bo'lmaydi. Kitoblardan o'qib bilyapmizki, hurlikka erishish yo'lida ota-bobolarimiz ko'p aziyat chekkanlar.

Shunday ekan, biz ulardan qarzdormiz. Qarzimizni esa hozirdanoq puxta bilim olib, komil inson bo'lib, yurt ravnaqiga hissa qo'shish orqali uzmog'imiz darkor.

Fikrimga qo'shilsizmi, tengdoshlar?

Shahzodbek ALISHEROV,
Farg'ona viloyati, Rishton tumanidagi
33-maktab o'quvchisi

OBOD MAHALLAM

Mahallamiz oqsoqoli Temur bobo ko'chalari-mizning ozodaligiga katta e'tibor qarata-dilar. Ayniqsa, eng aziz ayyo-mimiz oldidan «Sug'oniy» nomli mahallamizni yanada obodonlashtirishga undayptilar. «Ozoda, fayzli mahalla-yu xonadonlarga bayram yarashadi», deydlar otaxon.

Ba'zan yoshlik qilib, ko'chalarga turli chiqindilarni tashlar edik. Ammo, endi o'z mehnatimizni o'zimiz qadrlaydigan bo'ldik. Mahallamizni ozoda saqlab, yanada obod qilib, azaliy an'analarimizni davom ettiramiz.

Mahbuba QO'LDOSHEVA,
Qashqadaryo viloyati,
Chiroqchi tumani



– Ustozimiz Mustaqillik bayrami tantanalarida «Yulduz» guruhimiz ham qatnashishini aytganlarida, juda xursand bo'ldik.

MUSTAQIL DIYORNING DIYORASIMAN



ZUHRA olgan surat

Ayniqsa, mendek jajji qizaloq uchun shunday ulug' bayramda qatnashish yuksak sharaf, deb bilaman. Bayram dasturida baxtiyor bolalik, ta'til, maktab, Vatan haqidagi qo'shiqlar uchun sahnalashtirilgan raqslarni ijro etamiz. Qo'shiqlarda kuylanganidek chindan ham biz mustaqil O'zbekistonning baxtli bolalari, kelajagimiz!

Ota-onam, ustozlarim, qolaversa, Vatanim menga ishonch bildiryaptimi, men ham ularga munosib farzand bo'lsam, deyman.

Diyora ZOKIRJONOVA,
Toshkent shahar, Uchtepa tumanidagi 297-maktabning 4-sinf o'quvchisi

IFTIXOR

Istiqlol sharofati bilan yoshlarimiz ega bo'lgan imkon, imtiyozlar haqida o'ylaganimda ularning o'zlaridan-da ko'proq sevinaman, faxrlanaman. Yoshlariga ilm-fan, adabiyot, san'at, sport sohasidagi iqtidorlarini yuzaga chiqarishlarida bu qadar ijtimoiy rag'bat yaratgan mamlakat yana qayda bor, deymen.

Hazrat Alisher Navoiy aytadilarki:

*Ulga erur tifliga (bolaga) shoyista ish,
Bilki, kichiklikda erur parvarish,
Qatraga chun tarbiyat etdi sadaf,
El boshiga chiqquga topdi sharaf.*

Yozuvchilar uyushmasi Jizzax viloyat bo'limi qoshida ham «Sangzor» adabiy klubi tashkil qilingan bo'lib, ellikdan ziyod iqtidorli yoshlarga ijod sirlaridan saboq beryapimiz. Yozuvchi va shoirlar ishtirokidagi uchrashuvlar ularning adabiyotga, she'riyatga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshiradi. «Sangzor»da tarbiyalanib, Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sohibasi bo'lgan yetti nafar ijodkor qizlarimiz, «Yangi avlod» festivalining



S. ORTIQOVA olgan surat

besh nafar laureati, «Kelajak ovozi» respublika mega-tanlovining besh nafar g'oliblari bilan faxrlanamiz.

Ha, obod-ozod diyor bag'rida bunday g'unchalar barq urib gullayveradi. Bizning qalblarimiz esa iftixor tuyg'ulariga to'laveradi.

Turob MAQSUDOVI,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi
Jizzax viloyat bo'limi rahbari,
Xalq ta'limi a'lochisi

Azimjon yangi o'quv yiliga taxt qilib qo'ygan maktab formasini ko'zdan kochirar ekan, yaltillab turgan tuflisini yana bir bor kiyib ko'rdi. Tezroq tong otsa-yu, uni maktabga kiyib borsa! Bu holni kuzatib turgan onasi «Bilasanmi, o'g'lim, shu bejirim oyoq kiyimning o'zimizning tadbirkorlar tomonidan ishlab chiqarilgan ekan, sotuvchi aytganiday sifati ham, ko'rinishi ham chet elnikidan qolishmaydi-a; to'g'rimi?» dedi. Biroz o'ylanib qolgan Azimjon onasidan so'radi:

– O'yijon, qanday qilib shunday mahsulotlar ishlab chiqarish mumkin? Tadbirkor bo'lish uchun qaysi fanlarni yaxshi bilish kerak?..

Aziz o'quvchim, siz-chi, hech o'ylab ko'rganmisiz, bugun bozor, do'kon rastalarini to'ldirib turgan yurtimizda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni kimlar, qanday ishlab chiqaryapti? Balki orangizda kelajakda tadbirkor bo'lishni maqsad qilganlar bordir? Zero, bugun yildan yilga rivojlanib borayotgan bu

«Style step» – ZAMON BILAN HAM NAFAS QADAM



O'zimizning mahsulot



4

sohada faoliyat yuritish uchun barcha imkoniyatlar mavjud, sharoitlar yetarli. Ulardan unumli foydalanib, mazkur yildan boshlab, bolalar uchun qulay va mavsumiy oyoq kiyimlar ishlab chiqarayotgan «Style step» korxonasi rahbari Azimxo'ja va Anvarxo'ja aka Ibrohimxo'jayevlar ham bolalikdan shu kasbga qiziqqan ekanlar. Sababi, ularning bobolari Ibrohim ota mahallada taniqli kosib bo'lgan. Ustaning xonadonida kichik ustaxonasi bo'lib, kelajakda farzand-u nabiralari uning hunarini davom ettirishlarini orzu qilgan ekan. U vaqtlarda xususiy tadbirkorlik bilan shug'ullanish, ustaxonani

kengaytirib, yangi ish o'rinlari yaratishga yo'l qo'yilmagani haqida eshitgansiz-a? Bobosining orzularini amalga oshirgan va bugungi kunda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan Azimxo'ja aka bu haqda shunday hikoya qildilar:

– Bundan o'n besh yil avval kichik xususiy korxonada tashkil etgandik. Keyinchalik korxonamiz davlatimiz tomonidan yaratilgan imkoniyatlardan foydalanib, qolaversa, mehnatimiz tufayli «Style step» nomi bilan mas'uliyati cheklangan jamiyatga aylantirildi. Xorijiy davlatlardan qo'shimcha uskunalar keltirilib, zamonaviy modellar asosida ikki yuzdan ortiq turdagi oyoq kiyimlar ishlab chiqarishga erishdik. Dastlab erkaklar oyoq kiyimlari ishlab chiqarilgan korxonada 2011-yildan boshlab ayollar, 2012-yildan o'smirlar va bolalar uchun turli xildagi oyoq kiyimlari ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi...

O'tgan yili poytaxtimizda bo'lib o'tgan charm poyabzal va kiyim aksessuarlariga bag'ishlangan ikkinchi

xalqaro ko'rgazmada korxonada mahsulotlari «Eng yaxshi poyabzal dizayni uchun» yo'nalishida birinchilikni qo'lga kiritdi. Bunga qanday erishilgani haqida esa korxonada modelyer-bichiqchisi Anvarxo'ja aka quyidagilarni so'zlab berdilar:

– Mahsulotlar yuz foiz tabiiy charmdan tayyorlanadi. Oyoq kiyim dizaynlarini, ranglar tanlovini ham o'zimiz yaratamiz. Ayni kunlarda bolalarga kuz mavsumi uchun mo'ljallab ishlab chiqargan oyoq kiyimlarimiz xaridorgir bo'lyapti. Korxonamiz nomining tarjimasidan kelib chiqib shuni aytmochimanki, bolalarimizning odimlari hamisha zamon bilan hamnafas bo'lsin!

Tadbirkor akalaringizga havas-ingiz keldimi, aziz o'quvchilar?! Juda yaxshi! Zero, havas ezgu ishlar sari undaydi, maqsad bilan yashashga o'rgatadi.

Sayyora QODIROVA,
muallif olgan suratlar

Yuksak marralarni ko'zlagan har qanday millat, xalq uchun ta'limni rivojlantirish hayot va mamot masalasidir.

Islom KARIMOV

Jstiqolimizning 22 yillik shodiyonalarining asosiy g'oyasi sifatida «Qadr-qimmatim, tayanchim va iftixorimsan, mustaqil O'zbekiston!» deb nomlangan shior yurtodoshlarimizni yanada ruhlantirib yubordi, o'g'il-qizlarimizni yangi-yangi yutuqlar sari undadi. Ertangi kunimiz egalari bo'lmish yosh avlodni yuksak ma'naviyatli, iymon-

e'tiqodli, vatanparvar, komil insonlar qilib tarbiyalash, ular qalbida Vatanga muhabbat, yurtga sadoqat kabi fazilatlarini shakllantirishda, ustoz-murabbiylarning o'rni beqiyosdir. Shuni mamnuniyat bilan ta'kidlashni istardikki, gazetamiz adadining yildan yilga ortib borishida ham ularning hissasi katta bo'lmoqda. Qo'shaloq bayram – eng ulug', eng aziz ayyomimiz hamda yangi o'quv yili munosabati bilan ayrim viloyat Xalq ta'limi boshqarmasi boshliqlarining dil so'zlarini qog'ozga tushirdik.

HURLIGIMIZ ABADIY BO'LSIN!



Mehriniso PARDAYEVA,
Navoiy viloyati Xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i

o'shishda muhim omil hisoblanadi.

Navoiy shahridagi 16-umumta'lim maktabida o'qituvchilarning kasbiy mahorati va madaniyatini yuqori sifat darajasiga ko'tarish, ularning mas'uliyati va tashabbuskorligini o'shish maqsadida viloyat o'quv-seminari o'tkazildi. Unda ishtirokchilar beshta sho'baga bo'lingan holda belgilangan mavzular bo'yicha o'zaro fikr almashdilar, zarur ma'lumotlarga ega bo'ldilar. Jumladan, «2013–2014-o'quv yili uchun yaratilgan darsliklar va ularga kiritilgan o'zgarishlar, chet tillarini o'rganish yuzasidan olib borilayotgan ishlar», «Ta'lim jarayonida AKTni tatbiq etish samaradorligini o'shishda elektron darslik, proektsion-multimediya va internetdan

foydalanish» sho'balarida darslar qizg'in bahs-munozara asosida o'tdi.

Shuningdek, viloyatimizda bunyodkorlik ishlariga katta ahamiyat berilmoqda. Tomdi tumanidagi 5-maktab, Xatirchi tumanidagi 46-maktab, Nurota tumanidagi 6-maktab, Uchquduq tumanidagi 18-maktabda sport zallari qurildi. Nurota tumanidagi 13-BO'SM P-TIP bolalar sport majmuasi, Zarafshon shahridagi 7-, Qiziltepa tumanidagi 3-Bolalar musiqa va san'at maktablari qurilishi nihoyasiga yetmoqda. Hademay bu maskanlar bolajonlarni o'z bag'riga oladi.

Bunday ezgu ishlarimiz zamirida, albatta, Istiqloql bergan imkoniyatlar turadi. Barchangizga ayyom muborak! Hurligimiz, tinchligimiz, osoyishtaligimiz abadiy bo'lsin!

ULKAN MAS'ULIYAT

«O'qituvchi – inson qalbining me'mori» deyilar. Darhaqiqat, hayotimizning sarboni bo'lgan o'qituvchilar yoshlar qalbiga ezgulik, halollik kabi chin insoniy fazilatlarini, sof tuyg'ularni singdiradilar.

O'tgan o'quv yili viloyatimiz uchun yutuqlarga boy bo'ldi, desam mubolag'a bo'lmaydi. Jami 765 ta ta'lim muassasalari, jumladan, 545 ta umumiy o'rta ta'lim maktablari, 4 ta maxsus maktab-internatlar, 1266 ta maktabgacha ta'lim muassasalari, 14 ta «Barkamol avlod» markazlari, 22 ta bolalar va o'smirlar sport maktablarida turli millat vakillarining farzandlari bir oila a'zolaridek ta'lim tarbiya olmoqdalar.

Ta'lim sifati samaradorligini o'shish maqsadida qator tadbirlar amalga oshirildi. «Dars – murakkab, muqaddas jarayon», «Izla, o'rgan, o'rgat», «Murakkab fanni o'rganamiz» kabi mavzularda amaliy seminarlar tashkil etildi. Taniqli olimlar, adiblar, mohir pedagoglar bilan suhbatlar o'tkazildi.

Fanlar bo'yicha «Bilimlar bellashuvi»da Baxmal tumanidagi 8-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi Marg'uba Mamatova iqtisodiy bilim asoslari fanidan, Jizzax shahridagi 17-maktabning 6-sinf o'quvchisi Quadratilla Halimov geografiya fanidan, Armasoy



Isomiddin UMAROV,
Jizzax viloyati Xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i vazifasini bajaruvchi

tumanidagi 10-maktabning 5-sinf o'quvchisi Sevinch Abdullayeva o'zbek tili fanidan, Mirzacho'l tumanidagi 1-maktabning 6-sinf o'quvchisi Tatyana Pak rus tili fanidan, Jizzax tumanidagi 14-maktabning 8-sinf o'quvchisi Rahim Abdullayev geografiya fanidan, Forish tumanidagi 33-maktabning 6-sinf o'quvchisi Iroda Ahmedova ona tili fanidan viloyat va respublika bosqichida muvaffaqiyatli qatnashdilar.

Ayni kunlarda, 2013–2014-maktab yilida bundan-da ulkan marralarni ko'zlayotgan o'quvchilarimiz uchun barcha sharoitlarni yaratish harakatidamiz. 11 ta maktabda qurilish-ta'mirlash ishlari olib borildi. 4 ta Bolalar musiqa va san'at maktabi yangidan qurildi. Armasoy, G'allaorol, Yangiobod tumanlari va Jizzax shahridagi «Barkamol avlod» bolalar markazlari kapital ta'mirlandi. Shuningdek, bir qator ta'lim dargohlaridagi sport zallarida bunyodkorlik ishlari olib borildi.

Mana shunday ko'rkam, shinam, zamon talablari darajasidagi bilim dargohlarida yangi o'quv yilini boshlaydigan viloyatimiz o'quvchilarini, qolaversa, yurtimizning barcha o'g'il-qizlarini, ustoz-murabbiylarimizni qo'shaloq bayram bilan muborakbod etaman. Feruza SOYIBJON qizi yozib oldi



Yurtimizda ahil, ibratli oilalar juda ko'p. Obod turmush yili munosabati bilan joylarda ana shunday oilalar ishtirokida ko'plab tadbirlar o'tkazilmoqda.

Yaqinda poytaxtimizning Mirzo Ulug'bek tumanidagi «Oqqo'rg'on» mahallasida bo'lib o'tgan «Namunali oila» ko'rik-tanlovida shu tumanda istiqomat qilayotgan beshta ibratli oila ishtirok etib, Abdurahmonovlar oilasi g'olib deb topildi va shahar bosqichida qatnashish imkonini qo'lga kiritdi.

Darxon mavzesida istiqomat qilayotgan bu oila boshlig'i Alisher akaning kasbi haydovchilik, turmush o'rtog'i Nozimaxon opa mahalla fuqarolar yig'inida mas'ul kotib bo'lib ishlaydi. Oilada uch nafar farzand kamol topmoqda. Farzandlarning to'ng'ichi Nurmuhammadni suhbatga chorladik:

– Men 142-umumta'lim maktabining 3-sinfida, singlim Munisaxon shu maktabning 2-sinfida a'lo baholarga o'qiyman. Besh yoshli ukamiz Ibrohim esa bolalar bog'chasiga boradi.

– **Bo'sh vaqtingizni qanday o'tkazasiz?**

– Kitob o'qishni yaxshi ko'raman. Kichikligimizda Xayriniso buvijonimiz bizlarga ertaklar, matallar aytib berardilar. Hozir esa o'zimiz bemalol turli kitoblarni o'qiyman. Men, ayniqsa, ingliz tilini o'rganishga qiziqaman. Shuningdek, shaxka-shaxmat o'ynashni ham yoqtiram.

– Munisaxon qizim tuppatuzuk dastyor bo'lib qolgan, – deya suhbatga qo'shildilar bolalarning buvijonisi. – Uylarni yig'ishtirish, piyolalarni chayib qo'yish, ukasini o'ynatish kabi ishlarni bajarib, onasiga yordam beraypti.

Oilaning kenjasi Ibrohimtoy esa yaqinda Mustaqillik maydoniga borishgani, u yerda ko'rganlari haqida to'liqlanib gapira ketdi.

Biz yurtimizda bunday ahil, inoq, namunali oilalar ko'payishini niyat qilib, ularga tanlovning shahar bosqichida ham muvaffaqiyatlar tiladik.

Suhbatdosh BONU,
muallif olgan surat

Hashar – bizga yarashar

Poytaxtimizning Sergeli tumanida huquqshunoslik faniga ixtisoslashgan 303-umumta'lim maktabi bor.

MUNOSIB SOVG'A

Yaqinda 650 o'rinni mazkur bilim dargohi to'liq ta'mirdan chiqarilib, yangicha qiyofa kasb etdi. Ayni kunlarda ta'lim maskanida obodonchilik ishlari qizg'in davom etyapti. Maktab rahbari Shoira opa Sulaymonova boshchiligidagi o'qituvchilar-u o'quvchilar maktabni yangi o'quv yiliga tayyorlash maqsadida astoydil mehnat qilishyapti. Hatto quyi sinf kichikintoylari ham kuni kecha bo'lib o'tgan hashardan chetda qolishmadi. Qizlar ustozlari Anora opa, O'g'iloy opa boshchiligidagi maktab atrofini supurib-sidirishdi, deraza oynalarini yuvishdi, o'g'il bolalar esa gulzordagi gul-u rayhonlarning tagini yumshatishdi, sug'orishdi. Hasharda Mohira Tojiyeva, Ozoda Ortiqova, Akobir To'liqinov, Bahrom Yo'ldoshev singari serg'ayrat o'quvchilar barchaga ibrat bo'lishdi. Gavdasiga mos chelakchalarda atrofga suv sepyotgan qizaloqlarni suhbatga chorladik:

– Hormanglar hasharchilar, charchab qolmadingizmi?

– Yo'q, aksincha, hashar bo'lishini eshitib, qadrdon maktabimiz tomon oshiqdik, – dedi o'zini Muhayyo Mo'minjonova deya tanishtirgan qizaloq.

– Chunki qadrdon maktabimizni juda sog'inib qolgan edik-da, – qo'shimcha qildi uning dugonasi 3-sinf o'quvchisi Lazokat.

Bir so'z bilan aytganda, ta'mirlash ishlari tufayli yanada ko'rkamlashgan muhtasham maktab binosi o'quvchilar uchun Mustaqilligimizning 22 yillik to'yiga munosib sovg'a bo'ldi.

Guli CHEHRA



MEN OZOD YURT BOLASI

Men Ozod yurt bolasi,
Ochilgan gullolasi,
Istiqlol nishonasi –
Bobom orzu qilgandek!

Vatan qarog'imdadir,
Har bir so'rog'imdadir,
Qurdik bir zamona hur –
Bobom orzu qilgandek!

Qo'lim yetar Oyga ham,
Undan baland joyga ham,
Qarang, zamona xurram –
Bobom orzu qilgandek!

Tugatildi qullik shart,
Yanchildi qora hasrat,
E'zozda Cho'lpon, Fitrat –
Bobom orzu qilgandek!

Yuksalmoqdadir davlat,
Kundan kunga badavlat,
Qulmas, bek bo'ldi millat –
Bobom orzu qilgandek!

Aqlli qiz bo'laman,
Orzularga to'laman,
Sodiqlik farzand bo'laman –
Bobom orzu qilgandek!

Men asl O'zbekdirman,
Tirikman, Vatan derman,
Uni hech kimga bermam –
Bobom orzu qilgandek!

Munisa RASULOVA,
Samarqand viloyati,
Kattaqo'rg'on tibbiyot kolleji
o'quvchisi

VATAN

Erkin, ozod, hurlikda bugun,
Yashayapmiz biz yangi avlod.
Vatan sha'ni har nedan ustun,
Yurtda tinchlik, ko'ngillar obod.

Osmonimiz tiniq, osuda,
Boshimizda nur sochar quyosh.
Yurt mehrini his qilib yashar,
Iqbolidan mamnun keksa-yosh.

Hurligimiz qutlab samoda,
O'n besh kunlik hilol ham balqqan.
Bir elmizki tinchlik tilagan,
Bir qayiqda osuda qalqqan.

Sezdik bugun Vatan ardog'in,
Bag'rin ochdi Humo har damda.
Ozodlikning mag'rur bayrog'in,
Ko'taramiz doim balandda.

Adiba MEYLIYEVA,
Toshkent davlat texnika
universiteti qoshidagi Chilonzor
akademik litseyi o'quvchisi

YAKKABOG'IM

Bolga to'lgan bog'larini,
Ko'z-ko'z qilar saxiy diyor.
Qiyosini izlab ko'ring,
Bunday o'lka qayda ham bor?

Obod shahar, qishloqlarin,
Guzarlarin ko'rganmisiz?
Chiroy ochgan bu diyorda,
Do'stlar, davron surganmisiz?

O'zbekiston, yashna mudom,
Jannatmonand ajib bog'im.
Bag'ringdagi bir niholdir,
So'lim go'sha – Yakkabog'im

Soraxon TO'YCHIYEVA,
Qashqadaryo viloyati,
Yakkabog' tumanidagi
65-maktab o'quvchisi

NURLI MAKONIM

O'ziga bek, o'ziga xon bo'lgan yurtim,
Yuraklarga nurlig makon bo'lgan yurtim,
Yuksalyapsan kundand kunga ochib chiroy,
Biz yoshlarga zo'r oshiyon bo'lgan yurtim.

Beqiyos o'lkaning bog'laring chaman,
Quyoshing nuridan qonib ichaman.
Seni onam yanglig' sevib quchaman,
To'yularing muborak, ey aziz Vatan!

Xursanoy KARIMOVA,
Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa va
san'at akademika litseyi o'quvchisi

Ek, orzulari yer-u ko'kka sig'maydigan bolalik. Xotiramning bebaho kitoblarini to'ldirib, yuragimni sog'inchlarga qorishtirib ketganingdan buyon sen haqingda o'qlayverib adoqi tamom bo'lganimni bilsayding?! Hali olti yoshga to'lmasdan turib, akamni maktabga olib borayotgan otamning ortidan yalangoyoq yig'lab yugurgan kezarim sendan o'zib ketgan bo'lsam, ajabmas. O'shanda domla Bahromov otamga qarab:

– O'qishga ishtiyoqi bor ekan, qo'ying, o'qisin, – degandi. Lekin birgina ishtiyoq bilan ish bitmas ekan.

– Hech bo'lmasa olti yoshni to'ldirsing, – deya maktab direktori meni maktabdan qaytarib yuborgandi. O'shanda faqat maktabdagi oq devor-u qora partalar rangi ko'z oldimda muhrlanib qolgandi...

Oradan bir yil o'tmay, yana maktabga borishning iziga tushib xarxasha qildim. Bu gal ishim o'ngidan keldi. Meni maktabga qabul qilishdi. Birinchi

o'qituvchim Temirovning mehribonliklarini sira unutmayman. Yetti-sakkiz chaqirimlik yo'ldan poyi-piyoda kelib bizlarga dars beradigan ustozimning chayir-ligini ternalarga qiyoslayman. U kishi menga

harflarni to'g'ri yozishni ko'rsatayotgan chog'ida bilaklarining tomirlari bo'rtib-bo'rtib chiqqanidan ustozning mehnatda toblanganini sezganman. Qadrdon sinfdoshlarimning har biri o'zga bir dunyo edi. Hayot shamollari ularni turli tomonlarga uchirdi.

Maktabimiz qorovuli urush ko'rgan otaxon Anvar bobo har kuni maktabga bir qop behi ko'tarib kelardi. Bir dona behiga kimdir 10 tiyin, kimdir 5 tiyin berardi. Mening hamyonim osonlik bilan pul ko'maganini bilgan Anvar bobo menga bepul behi berardi. Uning beminnat himmatini unutib bo'ladi mi?

Bir kuni do'stim Sa'dulla bilan maktabga ertaroq bordik. Darsga bizdan ham erta borgan sinfdoshimiz Salim sinfxonadan oppoq rangli siyohdon topib olganini aytdi. O'rtog'im Sa'dullaning vajohati o'zgardi:

– Bu mening siyohdonim, – dedi ko'zlari chaqnaq.

Men Sa'dullada bunday siyohdon yo'qligini bilsam-da, negadir lom-mim demay turaverdim. Salim topib olgan siyohdoni uchun qattiq tanbeh olgandi. Oxiri siyohdon Sa'dullani ko'lib qoldi. Bu nohaqlik uchun hanuzgacha na

Sa'dullani, na o'zimni kechirolmayman. Sinfdoshimiz Ra'no nuqul mening siyohdonimga peroli ruckasini botirib olgani uchun gap eshitardi...

U paytda biz maktabda juda kam o'qirdik.


Xo'jalik rahbarlarining topshirig'i bilan o'quvchilar erta bahordan yaganaga, kech kuzgacha paxta yig'im-terimiga jalb qilinardi. Ko'p vaqtimiz paxta maydonlariga o'tardi. Dalalarimizning ado bo'lmas yumushlariga sho'ng'ib ketardik.

Har gal ijodiy safarda bo'lganimda bolalikni yodga soladigan jonajon maktabimga, albatta, kiraman. Qadrdon ustozlarim Bahromov, Temirov allaqachonlar bu yorug'olamni tark etgan bo'lsalar-da, bugungi mehridaryo ustoz muallimlar siymosida ularni ko'rgandek bo'laman.

Maktab hovlisining bir burchagida qunishib, shirin-

shakar mevalariga mehrini qo'shib bolalarga ulashayotgan Anvar bobo ko'z oldimda gavdalanadi. Go'yo u menga behi uzatayotgandek bo'ladi...

Bugun biz o'qigan eski bilim dargohidan asar ham qolmagan. Biz siqilib o'tiradigan qora partalarning o'rnini zamonaviy jihozlar egallagan. O'quvchilar siyohdon ko'tarib yurmaydi. Zamon talablari darajasidagi ko'rkam binolarda tahsil olayotgan ko'zlari chaqnaq bolalarning yuz-ko'zlaridan baxtiyorliklarini anglash mushkul emas. Ular bizning bolaligimizdagidek



BOLALIKKA QAYTGIM KELYAPTI...

BARKAMOL AVLOD TARBIYASI — EZGU AMAL

Ma'lumki, sport farzandlarimiz salomatligini muhofaza qilish va mustahkamlash, ular o'rtasida sog'lom turmush tarzini qaror toptirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu maqsadda Istiqloqlarning ilk yillaridan Yurtboshimiz rahnamoligida bolalar sportiga jiddiy e'tibor qaralila boshlandi. Bunday yuksak g'amxo'rlik tufayli bugun nafaqat viloyat va shahar markazlarida, balki respublikamizning olis qishloq hududlarida ham zamonaviy sport inshootlari qurilib foydalanishga topshirilayotgani quvonarlidir. Qulay sharoit va barcha imkoniyatlarga ega bo'lgan sport markazlari yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishlariga xizmat

qilmoqda. Bu ezgu sa'y-harakatlarni amalga oshirishda Prezidentimiz tashabbusi bilan tashkil etilgan O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasining ham muhim o'rni bor. Bugun jamg'arma mablag'lari hisobidan yurtimizning barcha hududlarida bunyod etilayotgan sport

Bolalar sport obyektlarini zaruriy sport anjomlari bilan ta'minlash maqsadida, bugungi kunda 120 turdagi sport inventarlari va uskunalarining 114 tasi mamlakatimizda ishlab chiqarilmoqda.



inshootlari yangi-yangi chempionlarning kashf etilishiga zamin yaratmoqda. 2003–2012-yillar oralig'ida Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan jami 1375 ta inshoot foydalanishga topshirildi. Ularning 1114 tasi butunlay yangidan qurilgan bo'lsa, 4 tasi mukammal ta'mirlanib, yana 257 tasi rekonstruksiya qilindi. Mazkur sport inshootlarini to'liq va samarali faoliyat olib borishi uchun 25,8 mlrd. so'mlik sport jihozlari bilan ta'minlangani ham e'tiborga loyiqdir. Quvonarlisi, farzandlarimiz salomatligi, ularning nurli kelajagi yo'lidagi bu kabi ezgu

va xayrli ishlar ko'lami yildan yilga kengayib bormoqda. Sohaga qaratilayotgan yuksak e'tibor natijasida sportga mehri baland yosh o'g'il-qizlarimiz orasidan haqiqiy iste'dod egalari yetishib chiqmoqdaki, ular nafaqat mamlakatimiz miqyosidagi musobaqalarda, balki ko'plab xalqaro turnirlar, qit'a va jahon chempionatlari, Olimpiada o'yinlarida O'zbekiston nomini munosib himoya qilishmoqda.

Birgina badiiy gimnastika sport turini olaylik

Joriy yilda jami 172 ta inshootni qurilish-tiklash ishlariga jamg'arma hisobidan 214,8 mlrd. so'm mablag' ajratildi.

Keyingi yillarda qizlarimiz – bo'lajak millat davomchilari salomatligini mustahkamlash, ularni sportga keng jalb etish borasida muayyan ishlar amalga oshirildi. Natijalar esa kutilganidan ham a'lo. Badiiy gimnastika bilan

muntazam shug'ullanayotgan qizlarimiz orasidan Jamila Rahmatova, Maftuna Shamsiyeva, Luiza G'aniyeva, Zarina Qurbonova kabi haqiqiy iste'dod egalari yetishib chiqib, xalqimiz ishonchini oqlashmoqda. Vaholanki, 2003-yilda sportning ushbu nafis turi bilan muntazam shug'ullanuvchi qizlar soni 1 ming 700 nafarni tashkil etgan bo'lsa, bugun bu ko'rsatkich 35 ming 854 nafarga yetdi. Ular qo'lga kiritayotgan yuksak marralar, jahon arenalarida erishayotgan yutuq va natijalari sog'lom avlod tarbiyasi yo'lida qilayotgan ezgu ishlarimizga qo'shimcha kuch va g'ayrat baxsh etmoqda.

Muhimi, farzandlarimiz ozod va obod yurtda sog'lom va barkamol bo'lib ulg'ayishmoqda.

Sa'dullo TURSINOV

YOSH GANDBOLCHILAR BAHSI

Qoraqalpog'iston Respublikasining Nukus shahrida umumta'lim maktablari o'quvchilari o'rtasida gandbol bo'yicha musobaqa bo'lib o'tdi.

Yoshlarni sportga keng jalb qilish, o'quvchilarning yozgi ta'tilini mazmunli o'tkazish maqsadida tashkil etilgan qo'l to'pi bahsida shaharning 9-, 6-umumta'lim maktablarining yoshlari g'olib chiqishdi.



MAHORAT MAYDONDA OSHADI



Yaqinda 17 yoshgacha bo'lgan o'smirlar terma jamoamiz poytaxtda eronlik tengdoshlariga qarshi 3 ta nazorat-o'rtoqlik o'yinini o'tkazishdi.

Dilshod Nuraliyev bosh murabbiyligidagi yosh futbolchilarimiz 18-, 20-, 22-avgust kunlari «JAR» stadionida Eron o'smirlar terma jamoasiga qarshi o'rtoqlik o'yinida maydonga tushib, dastlabki uchrashuvda 2:0 hisobida g'alaba qozondi. Ikkinchi o'yinda 2:1 hisobida raqibidan ustun kelgan o'smirlarimiz, so'nggi uchrashuvda mag'lubiyatga uchrashdi – 0:1.

Qayd etish joiz, eronlik yosh futbolchilar ham mamlakatimiz o'smirlar terma jamoasi singari, shu yilning 17-oktabr – 8-noyabr kunlari BAA mamlakatida bo'lib o'tadigan U-17 o'smirlar o'rtasidagi jahon chempionati final bosqichi ishtirokchisi sanaladi.

O'smirlar o'rtasidagi jahon chempionati bahslari final bosqichiga qur'a tashlash marosimi 26-avgust kuni Abu-Dabi shahrida bo'lib o'tadi. Marosimda O'zbekiston o'smirlar terma jamoasi bosh murabbiyi Dilshod Nuraliyev hamda terma jamoa sardori Otobek Shukurov ishtirok etadilar.

Respublika «Mahalla» xayriya jamoat fondi, O'zbekiston futbol federatsiyasi, Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi, «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati hamda qator davlat va nodavlat tashkilotlari hamkorligida 9–14 yoshli bolalar va o'smirlar o'rtasidagi «Futbolimiz kelajagi» an'anaviy respublika turnirining saralash bosqichida Farg'ona, Andijon va Namangan viloyatlari jamoalari o'zaro kuch sinashdi.

O'SMIRLAR BELLASHUVI

Farg'ona shahrida tashkillashtirilgan mintaqaviy bosqichda 9–10 yoshli bolalar o'rtasida Farg'ona viloyatining Rishton tumanidagi «Chinnigaron», 11–12 yoshlilar o'rtasida Andijon viloyati, Shahrixon tumanining «Buvayda», 13–14 yoshli o'smirlar musobaqasida esa Farg'ona viloyati, Bag'dod tumanining «Irg'oli» mahallasi jamoalari g'olib chiqishdi.

Endi bu jamoalar musobaqaning mamlakat bosqichida g'oliblik uchun bahs olib boradilar.

«SEMURG'» — ZAMONAVIY MAJMUA

Buxoro shahridagi «Semurg'» sport majmuasi doimo yoshlar bilan gavjum. Majmuada o'zbek kurashi, yunon-rum kurashi, erkin kurash, qo'l to'pi, mini-futbol, suzish va sinxron suzish seksiyalari ishlab turibdi. Zamonaviy, barcha qulayliklarga ega sport zallari, yopiq suzish havzalarida o'tkazilayotgan sport mashg'ulotlarida 900 ga yaqin o'g'il-qiz mahoratini oshirmoqda. Ular orasida nufuzli musobaqalarda sovrinli o'rnlarni egallayotgan umidli sportchilar talaygina. Majmua yoshlari o'rtasida, ayniqsa, suzish va sinxron suzish tobora ommalashmoqda.



Shoh MUHAMMAD

Sahifamizning bugungi mehmoni Begzodbek Narimonov hali yosh bo'lishiga qaramay, ko'plab kinofilmlarda suratga tushib, muxlislar e'tiborini qozongan yosh iste'dod sohiblaridan. Hademay sakkiz yoshni qarshi oladigan Begzodbek endi qo'shig'chilikda ham o'z mahoratini sinovdan o'tkazib, bir-biridan chiroyli qo'shiqlar ijro etyapti. Vatan haqidagi qo'shig'i bilan «Yangi avlod – 2012» Bolalar ijodiyoti festivalining respublika bosqichida qatnashib, «Kichkina xushbov xonanda» yo'nalishi bo'yicha 1-o'rin sohibiga aylandi va Diplom bilan taqdirlandi. Biz jaji xonanda bilan uning san'atga kirib kelishi, orzu-intilishlari haqida suhbatlashdik:



KICKINTOY BILAN KATTA SUHBAT

– Ilk bor kinofilmda suratga tushganingizda necha yoshda edingiz?

– Adashmasam, uch yoshimda «Dilbandim» filmida bosh rolni ijro etganman. Hozir suratga tushish jarayonlarini eslay olmasam-da, bu rol orqali men san'at olamiga qadam qo'rganman.

– Kichik yoshda filmda rol ijro etish sizga

qiyinchilik tug'dirgan bo'lsa kerak-a? Axir matnlarni yod olishga kattalar ham qiynalishadi-ku!

– Yo'q, matnlarni juda tez yodlab olardim. Bir kamchiligim – yod olgan so'zlarimni she'r qilib o'qib berardim. Shunda rejissyorimiz meni yoniga chaqirib, kamchiliklarimni tushuntiradilar.

– San'at bilan bo'lib, maktabdagi baholaringiz pasayib ketmadingi? Axir siz uchun ayni paytda birinchi galda o'qish turadi, shunday emasmi?

– Albatta, san'atni qanchalik yaxshi ko'rman, har bir fanni chuqur o'rganishga, ustozlarim, otanom saboqlariga quloq tutishga harakat qilaman. Bo'sh vaqtlarimda rasm ham chizib turaman.

– Yana nimalarga qiziqasiz?

– Darslarimni tayyorlab bo'lgach, pianinoda musiqa chalaman. Bu mening eng sevimli mashg'ulotlarimdan biri. Qo'shiq aytilish esa jon-u dilim.

– Eshitishimizcha, yaqinda Musiqa va nafis san'at maktabida «Ozod yurtning bek bolasi» deb nomlangan yakkaxon konsertingiz ham bo'lib o'tibdi.

– Yakkaxon konsert dasturiga ustozlarim bilan uzoq tayyorlandik. Har bir qo'shiq ustida ko'p ishladik. Shuning uchunmi, muxlislar har bir chiqishimni olqishlar bilan kutib olishdi.

– Mustaqilligimizning 22 yilligi arafasida tengdoshlaringizga bayram tilaklaringiz...

– Tengdoshlarimning yangi o'quv yilida faqat a'lo baholarga o'qishlariga tilakdoshman.

Biz Begzodbekni ham ayyom bilan qutlab, kelgusida undan yangi-yangi qo'shiqlar, ajoyib rollar kutib qolamiz, deya xayrlashdik.

Nigora ABDUNAZAROVA suhbatlashdi, Zuhra NISHONOVA olgan surat

«O'ZBEKISTONIM» AYLANMA SKANVORDI

Tuzuvchi: Husan ORIPOV

Pazanda qiladi! «BAYRAM» terti

Kerakli masalliqlar:

6 dona tuxum, 1,5 piyola shakar, 1 piyola un, 1 piyola malina.

Kremiga: 0,5 litr qaymoq, 1 dona quyultirilgan sut.

Tayyorlanishi:

Tuxumlarning oqi sarig'idan ajratiladi. Oqi shakar bilan yaxshilab ko'pirtiriladi.

So'ngra, tuxumning sarig'i bittadan solib aralashiriladi va un qo'shib xamir qoriladi. Maxsus qolipga solib, 160 daraja haroratda qizdirilgan gaz pechida 45 daqiqa davomida pishiriladi. Sovigandan so'ng ikki bo'lakka bo'linadi. Orasiga mikser yordamida ko'pirtirilgan qaymoqqa quyultirilgan sut qo'shib tayyorlangan krem surtiladi. Tayyor bo'lgan tortimizning ustiga krem surtib, malinalar yordamida 22 raqami bilan bezatiladi.

Yoqimli ishtaha!

NARGIZA tayyorladi

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya jam'armasi.

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.